



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

ADABIYOTNING SHARTI MUKAMMALLIKDIR (ERKIN VOHIDOVNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI)

Nizomova Shoxista Shodiyevna

BuxDPI, f.f.f.d. (PhD), dotsent

Davlatova Sadoqat Qozoqjonovna

BuxDPI, 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidovning munaqqid sifatidagi qarashlari tahlil qilinadi. Uning adabiyot, she'r va shoirlik faoliyati, iste'dod, ilhom, so'z va nutq, til va notiqlik haqidagi fikr-mulohazalar mavjud.

Kalit so'zlar: Munaqqid, iste'dod, ilhom, shoir, she'riyat, tashbih, badiiyat, adabiy tanqid.

XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri shoir, publitsist, noshir Erkin Vohidov ijodi o'ziga xosligi keng qamrovliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g'oyalar tamoyili kitobxonni poetik mushohadaga chorlaydi. Hayot haqiqatini boricha namoyon etish, o'tkir ijtimoiy masalalarni dadil ko'tarib chiqish, ma'naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlash shoir ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Erkin Vohidovning publitsistik asarlari orqali uning ko'p sohalar bilimdoni ekanligi, mumtoz adabiyotni, xususan, Navoiy ijodiyotini chuqur o'rganganligi, jahon adabiyoti bilimdoni ekanligi anglashiladi. Bundan tashqari, Erkin Vohidovning adabiy-estetik qarashlari uning yetuk munaqqid sifatidagi yangi qirrasini kashf qiladi. U o'zining she'riy asarlari, publitsistik chiqishlari, adabiy-tanqidiy maqolalari orqali nafaqat o'z zamonasi, balki butun millat uchun muhim bo'lgan masalalarni ko'tarib chiqqan. Munaqqid sifatidagi qarashlarida ijodkor shaxsining ijtimoiy mas'uliyati, badiiylikning asl mezonlari, xalqchilik, milliylik, ma'naviyat va adabiy jarayonlar o'rtasidagi munosabatlar chuqur ifodasini topgan. Bugungi kunda Erkin Vohidov ijodiy merosi nafaqat o'zbek, balki bir qancha jahon olimlari diqqat markazida turgani ham e'tiborga molik. Bunga misol sifatida turkiyalik olimlarning shoir haqidagi ilmiy izlanishlarini keltirishimiz mumkin. O'zbek adabiyotshunosligida shoir ijodi borasidagi dastlabki qaydlar o'tgan asrning 60-yillariga borib taqaladi. Erkin Vohidov ijodiga doir tadqiqotlarning aksariyati uning shaxsiyatiga daxldor hayotiy hikoyalar, esse tarzidagi xotiralarda jamlangan. Erkin Vohidovning yana bir o'zbek adabiyoti oldidagi buyuk xizmati munaqqid sifatidagi qarashlari hisoblanadi. "Shoir-u, she'r-u shuur" kitobida hamda shoirning bir qator she'rlarida o'z aksini topgan bu qarashlar adabiyotimiz uchun juda qimmatli va ahamiyatlidir. Ushbu maqolada shoirning adabiy-estetik qarashlari adabiy-tarixiy va tahliliy, falsafiy metodlar asosida mazmuniy jihatdan bir nechta guruhlariga bo'lingan holda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Erkin Vohidovning asarlari, xususan, uning adabiy maqolalari, suhbatlari, intervyulari va nutqlari mushohadaga tortiladi. Shuningdek, Erkin Vohidov ijodi haqida yozilgan ilmiy maqolalar, tanqidiy materiallar, xotiralar va boshqa manbalar ham o'rganiladi. Adabiyot mavjud ekan, adabiy tanqid ham u bilan yonma-yon yashaydi. Bir-birisiz adabiyot mukammallikka erishmog'i mumkin emas. Adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyoti rivoji uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Har qanday ijodkor, har qanday davrda ham o'zigacha bo'lgan ijodkorlar va o'zi zamondosh bo'lgan ijod ahli yaratgan durdona asarlarga murojaat etib kelmoqdaki, bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Ulardan oziqlanib, tushunchalar, qarashlar, mulohaza va bilimlarini boyitib, uzviylikda yashashda davom etadi. Bu esa adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyotini belgilaydi. Shu jihatdan O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ham badiiy adabiyotning taraqqiyoti, ijod va ijodiy jarayon, she'riyat, shoirlik, adabiyot, adabiyotshunoslik muammolari haqida o'zining

qarashlarini, adabiy- estetik mulohazalarini bayon etgan. U adabiyotga tarbiyaviy, estetik va ijtimoiy vazifa yuklaydi.

Erkin Vohidov nazarida chinakam adabiyot xalq yuragidan o'sib chiqishi kerak; shoirning og'riqlarini, orzu-umidlarnini ifoda etuvchi kuch bo'lmog'i shart. Shoir ijodini baholashda xalq manfaatlari mezon bo'lishini ta'kidlagan. "Yozuvchi kelajak mulkining dastyori, xizmatchisi. Odamzod ertangi kunining qo'shiqchisi. O'lmas so'z yaratishda zahmatkash. Uning so'zi millionlar qalbida aks-sado topsagina o'lmas so'z bo'ladi" [3-11b]. Shoir adabiyot san'at va uning inson tafakkuriga ta'siri haqida fikr yuritarkan, adabiyotda burilish nuqtalarda turgan shoirlar sifatida Navoiy, Pushkin, Mayakovskiyni yuksak e'tirof etadi, Shu o'rinda shoirning "yuragi" bo'lgan iste'dod tushunchasiga shunday izoh beradi: "Iste'dod bu mumkin bo'lmaganni mumkin qilish, hukmron estetik prinsiplarga yangilik kiritish, she'riyat mana bundoq bo'ladi, deb yangicha nuqtayi nazar bilan chiqib, shunga odamlarni ishontirish demakdir"[3-14].

Iste'dodsiz kishi adabiyot olamida erkin nafas olishga qiynaladi, shuningdek, ular tomonidan yozilgan ijod mahsulining ham umri qisqa bo'ladi va bunday asarlar zavolga yuz tutadi. Yana shunday ijod ahli ham borki, ularga tug'ma iste'dod Olloh tomonidan berilgan, ammo bu iste'dod yuzaga chiqishi uchun uni tarbiyalash zarur, shundagina u yuksaklarga parvoz qiladi. Ijodkor nafas oladigan havo adabiy muhitdir. Bu havo toza va musaffo bo'lmog'i kerak. Zero, shoirlik aynan shu sifatlarga mos kelib, mas'uliyat tushunchasi bilan uyg'unlashib ketadi. Shoir yozadi: "Iste'dodning o'zi qolipga sig'maydigan, turli-tuman tabiatli va aql bilan anglash qiyin bo'lgan sirdir. Barcha iste'dodlar kabi shoirlik iste'dodi ham tug'ma bo'ladi va bolalikdan o'zini namoyon etadi. Bu kunduzdek ravshan, haqiqatning o'zidek ayon. Tug'ma iste'dod egasi bo'lmagan, she'riyatga havas tufayli adabiyotga kirib qolganlar umr bo'yi havaskorlar bo'lib qolaveradilar" [3-15b]. Erkin Vohidov shoirni "millat qalbi" deb ataydi. Unga ko'ra, shoir jamiyatdagi har bir o'zgarish, muammo va yutuqqa befarq bo'lmasligi kerak. Shoir so'z kuchi bilan o'z xalqi oldidagi mas'uliyatini ado etadi. Shoir shu o'rinda yana bir g'oyani ilgari suradi. U shoirlik tug'ma iste'dod ekanligini va juda noyob tushuncha ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shu qatorda shoir va yozuvchilarning so'z tanlash mahoratiga ham e'tibor berib, ularning so'zi "millionlar qalbida aks-sado topsagina o'lmas so'z"ga aylanishini izohlab o'tadi. Erkin Vohidov o'z qarashlarida badiiyat haqida ham chuqur mulohazalar yuritadi. Adabiyot – so'z san'ati, yurakning amri ekanligini u hamisha vijdon bilan barhayot ekanligini ta'kidlaydi: "Yaxshi she'r, yaxshi shoir kabi noyob hodisa. Chinakam shoir har yili chiqavermaganidek, chinakam yaxshi she'r hatto ulkan shoirlarga ham har kuni nasib bo'lavermaydi. Shunday she'r bunyod bo'lgan kun esa faqat shoir uchun emas, butun she'riyat uchun bayram bo'ladi" [3-83b]. Darhaqiqat, shoirlik juda noyob iste'dod, haqiqiy shoir bo'lish esa, undan-da yuz karra mas'uliyatli hodisa. Shoir bu fikrlari bilan adabiyotimizda bir qarashda chaqmoqdek chaqnab turadigan, o'qiganimiz sari qalbimizda nafis bir ilqlik uyg'otadigan she'rlar haqidadir. Shoir ushbu fikrlarini davom ettirib, shunday yozadi: "Ilhom tashbih qidirmaydi. Shoir o'z she'ri bilan yonganda, tashbihning o'zi keladi. Topilgan o'xshatishlar, istioralar asosiga qurilgan she'r har qancha yorqin har qancha chiroyli bo'lmasin, yasalgani bilinib turadi. Qofiya fikrga bo'ysunishi kerak bo'lganidek, tashbih she'rning ruhiga bo'ysunishi kerak"[3-84b]. Erkin Vohidov she'riyatdagi badiiylik mezonlari haqida fikr yuritarkan, shoirning birinchi vazifasi insonlar qalbiga nur olib kirish ekanligini aytib o'tadi. Shuningdek, she'riy vaznlar, badiiy san'atlar haqida mulohazalar yuritib, turli davrda va muhitda yashagan shoirlarning ijod namunalarini keng va chuqur tahlil qiladi.

Shoir o'z asarlarida va qarashlarida ona tilimizga alohida e'tibor qaratadi. U o'z davrida tilni buzadigan, buni hech ikkilanmay maqtanib, zamonaviylik deydigan yoshlar masalasiga jiddiy e'tibor qaratadi. Buni "epidemiya aylanishi mumkin bo'lgan xavfli kasallik" ekanligini uqtiradi. "Ozbek adabiy tilini payhon qiluvchilarni tushovlab qo'yish vaqti kelmadimikan? Ular so'nggi yillarda ayniqsa ko'payib qoldi. Mahalliy matbuot, radio uchun shoshilinch material yetkazib beruvchi bunday kosiblar tilimizga benihoya katta "xolis

xizmat”qilishyapti”. Tilimiz benihoya boy, go’zal, nazokatli til ekanligi, qoidalar qobig’iga o’ralgan tilda emas, ajoyib jonli va albatta adabiy tilimizda so’zlashish lozimligini ta’kidlaydi”. [3-23b]

Darhaqiqat, bu fikrlar ayni zamonda ham juda dolzarb hisoblanadi. **Ona tili** — umummillat mulki, til oldidagi mas’uliyat ham umummilliy. Men o’zbekman degan har bir inson o’zbek tili uchun qayg’urmog’i kerak. Til yolg’iz mutaxassislarning mulki, xususiy tomorqasi emas, uni boyitish, go’zal qilish, xas-xashaklardan tozalash, unutilgan, ma’nosi o’zgargan so’zlarni tiklash hammaning ishi... Erkin Vohidov tilimizning boyligi, sofligi, muammolari, istiqboli haqida mudom qayg’urib, jonkuyarlik qilib kelgan faol ijodkorlardandir.

Erkin Vohidovning adabiy-tanqidiy qarashlari nafaqat o’z davri, balki bugungi adabiy muhit uchun ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. U tanqidni ijodkorni yerga urish emas, balki uni kamolga yetaklovchi vosita deb bilgan. Bugungi adabiyotda ko’plab yosh ijodkorlar Vohidovning adabiyotga, xalq va zamonga bo’lgan sadoqatini o’zlariga ibrat qilib olmoqda. Vohidov adabiy tanqidda fikr erkinligi va mas’uliyat muvozanatini ushlab tura olgan kam sonli ijodkorlardan biridir. Uning tanqidiy qarashlari o’zbek adabiyotining asosiy tamoyillarini aniqlashda muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Erkin Vohidovning adabiy-tanqidiy qarashlari bugungi o’zbek adabiyotining estetik, ma’naviy va ijtimoiy rivojida muhim o’rin tutadi. U tanqid orqali ijodkorlikni yuksaltirish, adabiy jarayonni tozalash, xalq ruhiyatiga yaqin adabiyot yaratish g’oyalarini ilgari surgan. Maqolada berilgan tahlillar Erkin Vohidov merosining bugungi avlod uchun o’rnak ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Vohidov E. Ishq savdosi. Saylanma. 1-jild. – T.: Sharq, 2000.
2. Madayev O. Insoniyatni uyg’otgan shoir. “Ma’rifat” gazetasi, 97-son. 2016.
3. Vohidov E. Shoir-u she’r-u shuur. – T.: Sharq, 2005.
4. Vohidov E. Mening yulduzim. Toshkent, 2018.
5. kizi Rustamova, G. B. (2025). TRANSFORMATIONAL ASPECTS INHERENT IN DENDRICAL IMAGES IN NEW UZBEK LITERATURE. Bulletin news in New Science Society, 2(6), 291-298.
6. Saidakhmedovna, U. D., & Bakhronovna, R. G. (2022). Some Comments on the Expression of the Image of “Life Tree” In Legends and Narrations. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(6), 51-55.
7. OBRAZINING, Q. (2020). O’ZIGA XOS TALQINLARI. НамДУ илмий ахборотномаси, 1, 5-311.
8. Kizi, R. G. B., Ubaydullayevna, N. Y., & Kizi, M. M. I. (2020). The image of trees in folklore: Genesis and poetic interpretations. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 6342-6349.
9. Рустамова, Г. (2021). ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Бахрон қизи Бухоро давлат университети таянч докторанти. In Научно-практическая конференция (Vol. 1, pp. 287-291).